

Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th January, 2023

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

IS GAZINING INSON ORGANIZMIGA TA'SIRI VA ZAXARLANGANDA BIRINCHI YORDAM

Qaxxorova Muazzam O'ktamjonovna

Yunusov Rahmatillo Muhammadillo o'g'li

Isroilov Abdurashid Muhammadisayevich

Quva Abu Ali ibn Sino nomidagi Jamoat salomatligi texnikumi

Annotatsiya:

Is gazidan qator organik moddalar (aseton, metil spirt, fenol va boshqalar)ni sintez qilish uchun foydalaniladigan korxonalarda, avtoulavlar turar parklarida ventilatsiya yomon bo'lganda, yangi bo'yalgan shamollatilmaydigan xonalarda shuningdek uy sharoitlarida tabiiy gaz chiqib turganda va pechka bilan istiladigan uylar, hamomlarda dam olish palatkalarida isinish uchun cho'g' olovlaridan va boshqalarda yonish mahsulotining to'liq yonmasligi natijasida zaharlanib qolish mumkin.

Kalit so'zlar: uglerod dioksid, gipoksiya, gemoglobin, sianoz.

Is gazi (uglerod oksidi) - rangsiz, ta'msiz, hidsiz zaharli gaz. Kimyoviy formulasi – CO_2 . U yer yuzida energiyaning jadal ishlatilishidan yuzaga keluvchi, tabiatda eng ko'p tarqalgan zaharlovchi gazlardan biridir.

Qazib olinadigan yoqilg'ilarning to'liq yonmasligi is gazining bosh manbai hisoblanadi. U asosan ko'mir, tabiiy gaz va boshqa yoqilg'ilarning to'liq yonmasligi sabab yuzaga keladi. Nafas olinuvchi havo tarkibida 0,1 foiz is gazining bo'lishi o'lim holatiga olib kelishi mumkin! Is gazi organizmga tushganda u qon tarkibidagi gemoglobin va kislorod tashuvchi eritrotsitlarni o'zaro bog'lab, kislorodning tana bo'ylab harakatlanishini cheklaydi. Natijada inson hushini yo'qotadi.

Is gazidan zaharlanishning umumiy belgilari.

- Bosh miya tizimida: uyquga tortish, bosh aylanishi, bosh og'rig'i, hushini yo'qotish;
- Ko'rish tizimida: ko'z oldining qorong'ulashishi;
- Eshitish tizimida: eshitish qobiliyatining pasayishi;
- Teri qismida: terlash kuchayishi;
- Nafas olish tizimida: nafas olishning og'irlashishi, yo'tal;
- Yurak qismida: puls va AB ortishi;
- Mushaklar tizimida: tremor (qaltirash).



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th January, 2023

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

Qanday holatlarda is gazidan zaharlanish xavfi yuqori bo'ladi?

- Shamollatish tizimi yaxshi ishlamaydigan organik moddalarni ishlab chiqaradigan korxonalarda;
- Avtoulavlar turargohlarida;
- Yangi bo'yalgan va shamollatilmagan xonalarda;
- Uy sharoitlarida tabiiy gaz chiqib turganda;

Pechka bilan isitiladigan uylar, hammomlar, dam olish palatkalarida yonuvchi moddaning to'liq yonmasligi natijasida zaharlanib qolish mumkin.

Bundan tashqari, hozirda savdo do'konlarida sotilayotgan, gazda ishlaydigan har xil turdagi gaz uskunolari, jumladan, Eron davlatida ishlab chiqilgan "kamin" gaz uskunasi chiroyli, ixcham ko'rinishli, isitish mavsumida ishlatib, keyin boshqa joyga olib qo'ysa bo'ladigan qulayliklarga egadir. Biroq ushbu gaz uskunasi boshqa davlatda ishlab chiqilgani sabab, uni o'rnatish va foydalanishga doir texnik pasport o'zbek yoki rus tillariga tarjima qilinmagan. Buning oqibatida, undan foydalanishdagi xavfsizlik qoidalari bilan tanishish imkoni bo'lmaydi. Mazkur gaz uskunasi o'zboshimchalik bilan, mutaxassisning ko'rsatmasisiz "Qurilish me'yorlari va qoidalari" talablarini buzgan holatda o'rnatilmoqda. Natijada esa insonlar is gazidan zaharlanib vafot etmoqda.

Is gazi (SO) rangsiz, hidsiz, korxona sharoitida eng ko'p uchraydigan zaharli birikma tabiiy gaz, yoqilg'i, ko'mir, o'tin cho'g'lari to'liq yonmasligi chala yonishi oqibatida vujudga keladi. Tutun tarkibida 3%, ishlangan gazda 13%, portlovchi gazlar tarkibida 50-60% gacha is gazi bo'ladi.

Is gazi organizmga nafas a'zolari orqali ta'sir etadi. Ushbu gaz kislorodga nisbatan 300 marotaba tez va ko'proq gemoglobinga birikish xususiyatiga ega, shuning uchun juda mahkam birikma-karboksigemoglobin hosil qiladi. Oqibatda gemoglobinning to'qimalarga kislarod tashish xususiyati juda pasayib, gipoksiyaga, og'ir zaharlanganda anoksiyaga olib kelishi mumkin.

Is gazining katta miqdori tarkibida temir moddasi bor. Nafas olish fermentini parchalaydi. Bu o'z yo'lida, to'qimalarning nafas olish faoliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Is gazi bilan zaharlangan organizmda uglerod va oqsil almashinuvi buziladi, natijada asidoz alomatlari yuzaga keladi. Qon tarkibida kaliy va kaltsiy muvozanati markaziy nerv sistemasi faoliyati buziladi. Bosh miyada bosimning oshishi, miyaga va yurak mushaklarida qon aylanishi kuzatiladi. Organizmga kislarod etishmasligi oqibatida markaziy nerv sistemasi faoliyati buziladi. Shu tariqa inson hayotdan ko'z yumishi



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th January, 2023

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

mumkin. Tabiiy gazning xonada tʻyplanishi oqibatida yongʻin yoki portlash sodir boʻladi hamda buning natijasida inson turli tan jarohati olishi mumkin. Zaharlangan kishini zudlik bilan toza havoga olib chiqish zarur, nafas olishi toʻxtab qolganda sunʻiy nafas berish lozim, bu tadbirni bemor mustaqil nafas olgunga qadar yoki biologik oʻlim alomatlari paydo bulguncha davom etiriladi. Badanni ishqalash, oyoqlarga grelka qoʻyish, qisqa vaqt nashatir spirt bugʻlarini hidlatish (nashatir spirti bemor burnidan kamida 1 sm uzoqlikda shimdirilgan paxta yoki marlidan xidlattirilishi shart aks holda spirtning oʻtkir hidi bemorni paralich holatiga olib kelishi mumkin) zaharlanish oqibatlarini tugatishga imkon beradi. Zaharlanib qolgan kishilar hospitalizatsiya qilinishi kerak, chunki birmuncha keyinroq oʻpka va asab sistemasi tomonidan ogʻir asoratlar vujudga kelishi mumkin. Agar bemor xushida boʻlsa, tananing yuqori qismini qisib turuvchi kiyimlardan boʻshatiladi, issiq choy qaxva ichiriladi. Har qanday is gazidan zaharlanish darajasida ham bemorlarni shoshilinch holda reanimatsiya yoki toksikologiya boʻlimiga yotqiziladi. Kasalxonadan chiqqan bemorlar trapevt va nevropatolog kuzatuvida boʻlishi shart aks holda keyinchalik uning alomatlari yuzaga chiqishi mumkin.

Gazdan zaharlanganda birinchi yordam qanday koʻrsatiladi?

Barcha holatdagi ogʻir zaharlanishlarda zudlik bilan tez tibbiy yordam chaqirish zarur. Shifokor yetib kelgunga qadar quyidagilarni amalga oshirish kerak:

- Jabrlanuvchini zudlik bilan gazlangan hududdan toza havoga olib chiqish kerak;
- Jabrlanuvchining qoʻl va oyoqlarini koʻtarilgan holatda yotqizish;
- Nafas olishiga xalaqit beruvchi barcha narsalarni yigʻishtirish (tugmalarni yechib, yoqani ochish, kamarni boʻshatish va boshqalar);
- Jabrlanuvchining uxlab qolmasligini nazorat qilish. Jabrlanuvchini yurgizish taqiqlanadi;
- Jabrlanuvchi nafas olmayotgan boʻlsa, unga toza havoda yoki havosi yaxshi aylanadigan xonada sunʻiy nafas oldirishni boshlash lozim;
- Nashatir spirtini hidlatish;
- Hushiga kelgan vaqtida yiqilib, jarohatlanmasligi uchun choralar koʻrish;
- Jabrlanuvchining holati yaxshi boʻlsa, issiq choy yoki qahva ichirish;
- Kislorod yostigʻi yordamida kislorod berish.

Bemor toza hududga olib chiqilgach yuqori partsial bosimdagi (1.5-2 atm) toza kislarod bilan bemor nafas oldiriladi. Talvasa va psixologik shokning oldini olish



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th January, 2023

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

uchun neytroleptiklardan mushaklar orasiga 1-3 ml 2.5 % li aminazinni 5 ml 0.5% li stirillangan navokain bilan aralashmasi yuboriladi. Nafas olishning buzilishida 10 ml. dan 2.4% li eufillin eritmasi venadan takroriy yuboriladi. Sianozda (ko`karib ketish) zaharlanishning birinchi soatida venadan glyukoza bilan birgalikda 5% li askarbin kislatasi (20-30 ml) yuboriladi. Teri ostiga 10 birlik insulin bilan birga, venadan tomchi yo`li bilan 200 ml 40% li glyukoza eritmasi, 2% li 50 ml novakain eritmasi, 5% li 500 ml glyukoza yuboriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. <https://xs.uz/uz/>
2. <https://fvv.uz/uz>
3. <https://oz.sputniknews-uz.com/>

